International scientific-methodological electronic journal
"Foreign Languages in Uzbekistan", 2023, No 2(49), 152-162
https://journal.fledu.uz
ISSN: 2181-8215 (online)

ALISHER NAVOIY RINDONA G'AZALLARIDA RIND OBRAZI VA ZOHIDLIK TALQINI

Oyjamol Saidovna BOBOQULOVA
Tadqiqotchi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti
Toshkent, O'zbekiston

ОБРАЗ РИНДА И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОТШЕЛЬНИЧЕСТВА В ГАЗЕЛЯХ АЛИШЕРА НАВОИ

Ойжамол Саидовна БОБОКУЛОВА
Исследователь
Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы им. Алишера Навои
Ташкент, Узбекистан

THE IMAGE OF RIND AND THE INTERPRETATION OF HERMITISM IN THE GHAZALS OF ALISHER NAVOY

Oyjamol Saidovna BOBOKULOVA
Researcher
Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi
Tashkent, Uzbekistan obobokulova@mail.ru

UDC (UO'K, УДК): 82-1/29: 821.512.133: 801.73

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):
Boboqulova O.S. Alisher Navoiy rindona g'azallarida rind obrazi va zohidlik talqini. //O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 2 (49). — B. 152-162.

https://doi.org/10.36078/1683278568

Received: February 18, 2023
Accepted: April 17, 2023
Published: April 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).
This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).
http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

Open Access

Annotatsiya. Maqolada rind va rindlik mohiyatini ochishga xizmat qiluvchi rind-zohid qarama-qarshiligiga asoslangan usul asosida Navoiy rindona she'riyatidan ayrim lavhalar tadqiq etilgan. Rind va zohidlik haqiqatini yoritishda *riyo*, *taqvo*, *tavba*, *sidq-u ixlos* kabi tayanch tushunchalarning istilohiy talqiniga e'tibor qaratilgan va shu nuqtayi nazardan tanlangan materiallar tahlil etilgan, xulosalar chiqarilgan. Bunda, albatta, ilmiy-nazariy manbalarga, mutafakkirlar fikrlariga tayanilgan. E'tiborli jihati — muallif zohid ustuvorligini ta'minlovchi jihat — rindning shar'iy tomondan inkor etilishi masalasini jiddiy o'rganib, rind va rindlik mohiyatini shu nuqtayi nazardan ochishga harakat qilgan va manbalar asosidagi tahlillarini amalga oshirgan. Zohidga xos ma'naviy-ruhiy harakatsizlikdan farqli o'laroq, rindning ruhiy yuksalish jarayonlari haqida *riyo*, *tavba*, *taqvo*, *sidqu ixlos* kabi tushunchalarni shoir she'rlaridagi talqinlari asosida o'rgangan. Rind va zohid qarama-qarshiligini tadqiq etib, rindning boqiylikka tutash ma'naviy olami manzaralari xususida xulosalarini bayon qilgan.
Kalit so'zlar: rind; zohid; ziddiyat; riyo; taqvo; tavba; may; din; riyokor shayx; tajalliy; sidqu ixlos; botiniy kibr.

Аннотация. В статье исследуются отрывки из газелей Алишера Навои, воспевающие вино. Автор при анализе материала уделяет основное внимание образу поэта-ринда и противопоставляет его к образу зохида-отшельника, и этот способ служит для раскрытия сущности ринда и зохида (отшельника). В освещении основных понятий газелей данного цикла, где главными образами являются ринд и отшельник

(зохид), уделяется внимание художественно-философской трактовке основных понятий, таких как *риё, тавба, такво, сидк, ихлас* (лицемерие, покаяние, благочестие, преданность), и с этой точки зрения анализируются избранные материалы, делаются выводы. При этом автор опирается на научно-теоретические источники и мнения мыслителей Востока. Примечательно то, что автор изучил вопрос отрицания ринда шариатом, что обеспечивает приоритет аскета, с помощью чего попытался раскрыть сущность ринда и течение, связанное с ним. В отличие от духовно неподвижного отшельника (зохида), ринд стремится к духовному росту, и автор анализирует этот процесс, опираясь на такие понятия, как *риё, тавба, такво, сидк, ихлас*, которые интерпретировал Навои в своих стихах (газелях). Исследуя противоположные стороны ринда и зохида, автор раскрывает духовный мир главного героя газелей — ринда, который стремится к Всевышному, к вечности.
Ключевые слова: ринд; отшельник; конфликт; лицемерие; покаяние; благочестие; вино; религия; лицемерный шейх; таджалли (проявление божественной красоты); преданность; внутренняя гордыня.

Abstract. The article examines some aspects of Alisher Navoi's ghazals, glorifying wine. When analyzing these ghazals, the author focuses on the image of rind and opposes it to the image of zokhid — a hermit. In highlighting the basic concepts of the ghazals with the rind and hermit (zokhid) images, attention is paid to the artistic and philosophical interpretation of the basic concepts, such as riya, tawba, takwa, sidk, ikhlas (hypocrisy, repentance, piety, devotion). The author relies on scientific and theoretical sources and the opinions of Eastern thinkers. It is noteworthy that the author studied the issue of denying rind by Sharia, which ensures the priority of the hermit, with the help of which he tried to reveal the essence of rind and the movement associated with it. Unlike a spiritually immobile hermit (zokhid), rind strives for spiritual growth and the author analyzes this process based on such concepts as riya, tawba, taqwa, sidk, ikhlas in Navoi ghazals. Exploring the opposite sides of rind and zokhid, the author reveals the spiritual world of the protagonist of these ghazals - rind, who aspires to the Almighty, to eternity.
Keywords: rind; hermit; conflict; hypocrisy; repentance; piety; wine; religion; hypocritical sheikh; tajalli (manifestation of divine beauty); devotion; inner pride.

Kirish. Rind va zohid tabiatidagi ziddiyat va qarama-qarshiliklar rindona idrok va ilohiy haqiqatni anglashning bir yo‘lidir. Chunki ular tanlagan maslak, tutgan yo‘l, ular orasidagi ziddiyat ana shu haqiqatni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Aslida, kasrat olamining o‘zi, uning sirlari ziddiyatlar mustahkamligi zimnida qurilgan, mukammallangan. Dunyo insonning bilishi, anglashi uchun yaratilgan. Ziddiyatlar olami ana shu maqsadga yo‘naltirilgan: ziddiyatlar sirlarga yo‘l ochadi.

Rindning adabiyotda ham, ijtimoiy hayotda ham mavjudligini belgilaydigan aurasi bor. Uni anglash, his qilish rindlik mohiyati yuzaga chiqishiga olib keladi. Bu haqda Navoiy shunday deydi:

Munkiri sahl ba rindon, ki agar dar nigary,
Olame dar tahi har xirqa nihon xohad bud (1, 268).

(Mazmuni: Ey munkir, rindlarga kamsitish nazari bilan qarama, yaxshi tekshirib qarasang, har bir eski chopon tagida bir olam yashirinib yotganini ko‘rasan).

Asosiy qism. Alisher Navoiyning turkiy forsiy tillardagi rindona g‘azallarida rind va rindlik mohyatini ochish uchun zuhd, zohid, zohidlik tushunchalaridan foydalanib bu ikki tushuncha va hodisalarning qarama-qarshiligiga asoslanib yondashganiga guvoh bo‘lamiz. Rind va rindlik talqinida boshqa qutbda turgan zohid va zohidlikka munosabatning sodir bo‘lishi rind va zohid ziddiyati bilan bog‘liqdir. Rind va zohid munosabati oshiq va zohid, orif va zohid munosabatlariga qaraganda ham xarakterliroq, ravshanroq va o‘zgacharoqdir. Ziddiyatlar keskinlashgan manzillarda sirlarga yo‘l ochiladi. Zohid yoqlagan, intilgan manzillar, uning o‘lchamlari rind va rindlikda tanqid etiladi. Rind va rindlik yo‘li, qismati zohidlar tomonidan qat’iy inkor etiladi. Va bu aynan olam va odam haqiqatini o‘zida mujassamlagan islomiy qarashlarga munosabat masalasiga borib taqaladi. Adabiyotda timsolga aylangan tushunchalarning hayotiy asosi bo‘lgani kabi zohidning rindga nisbatan noroziligiga sabab bo‘ladigan ularning hayot tarzi va moddiy mayga munosabati masalasi ham jiddiy hayotiy asosga ega. Bu ijtimoiy hayotda rindning inkor etilishiga va adabiyotda “rind va zohid qutblari” yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Zohidning rindga inkor munosabati ortida shar’iy qarashlar mustahkam o‘rin tutadi. Shuning uchun rindona adabiyotda zohiran din, islomiy qarashlar rind va rindlikka zid qo‘yiladi. Bu adabiyotda rindona kompozitsiya shakllanishida, istilohiy ma’no yechimida rindona she’rlarga xos bir usul deb qaralsa, hayotda rindni hayotga yaqinlashtiradi, uni tanishga yo‘l ochadi. Rindning malomatiyligi, salti-suvoyiligi uning butun unsur illatlaridan poklanishiga ko‘maklashadi. Chunki insonda moddiylikka inkor munosabat uning ruhoniy takomili uchun muhimdir. Rind tabiatida mavjud xokka yaqinlik, zohiriy inkor munosabatga, malomatga bardosh o‘z olamini teranlashtirish, yanada kashf etishda, riyoni idrok etish va uni fosh etishda, ruh tantanasida muhimdir. Riyo nima**?** Yolg‘on, ikkiyuzlamachilik ma’nosida anglashiluvchi mazkur tushuncha rindlik mohiyatini ochishda tayanch tushunchalardan hisoblanadi. “Riyo — ikkiyuzlamachilik, yolg‘onni rost ko‘rsatishga urinish, nosamimiylik, u yoki bu moddiy manfaat uchun makkorlik qilish”, deb yozadi I. Haqqul (10, 204). Riyo taqdir sohibining nafsga daxldorligidan dalolat beradi. Chunki o‘zlikdan kechmaslik nafsdan uzilmaslikdir. Bunday inson ilohiy shaffoflik, go‘zallikdan yiroqdir. “Riyo barcha yaxshi va go‘zal fazilatlarning kushandasidir. Riyo joy topgan yurakda, albatta, hasad va xusumat bo‘ladi. Riyo har qanday odamni munofiqlikka yon berishga, to‘g‘rilikdan yiroqlashib, aldov va munofiqlik yo‘liga kirishga majbur etadi” (10, 204). Bunday hol, riyoviy kechinmalar o‘zgalar tomonidan ilg‘anmaganda ham taqdir egasiga ayon bo‘ladi. I. Haqqul aytganlaridek, agar kishi sidq-u ixlosga yetilmagan darajada qolsa, “botiniy kibr” anglanmasligi ham mumkin.

Avval rasvo bo‘l, so‘ngra rindlar tomon kel,
Chunki taqvo bilan mayxona tomon kelib bo‘lmaydi (1, 255).

Insonda mavjud ruhi rahmon riyodan xoli, pokdir. Shu bois yaralmish har bir inson xilqatida uni anglash, tanish mas’uliyati bor. Shunday ekan, ikki dunyoda O‘zidan o‘zgasi uchun so‘ralgan narsa, qarash **riyo** ekanini ham idrok etish uning zimmasida ekanini bilmog‘i lozim. O‘zidan o‘zgani ko‘rmaslik yoki o‘zganing O‘zidan ekanligini idrok etish solikning ma’naviy mavqeini ifodalaydi. Sidq-u sodiqlikning tub manzillarida riyoga o‘rin qolmaydi.(Bunda, albatta, ko‘ngil nazarda tutiladi.) Rindona she’riyatda ***rasvo bo‘lmoq*** istilohi ana shu poklikka erishish yo‘lida nafsoniy ehtiyojlardan ruhoniy shaffoflikka qadar barchasidan kechish mazmunida tushuniladi. Uning murakkabligi shundaki, yaqqol, moddiy belgilardan ko‘z ilg‘amas, mohiyatan uyg‘undek fikriy-tafakkuriy va hissiy tushunchalarni ham qamrab oladi. So‘fiylarning bu boradagi ustunligi shundaki, ular riyoning tub ildiziga yetadilar, tushunchalarni sidq-u ixlos mezoni asosida taftish etadilar. “… tasavvuf uchun bosh asos ishq, zavq, ilohiy go‘zallikdan tug‘ilgan samoviy hissiyotlardir. Shu bois, haqiqiy tasavvuf ahlida zohid va obidlardagi ichki turg‘unlik, ma’naviy-ruhiy harakatsizlik mutlaqo ko‘zga tashlanmaydi. Ular dunyoni doimo harakatda va yangilanishda idrok etadilar. Eng muhimi, taqvo-yu toat sohiblarida uchraydigan riyo yoki botiniy kibr tasavvufda ildiz-ildizi bilan quriydi” (10, 188). Shu bois so‘fiyona-rindona tafakkurga ko‘ra, Alloh uchun xolis qilingan amaldan tortib fikr-u shuur, tuyg‘u pokligida Allohga xolislikdan barchasidan tashqarida riyo bor, deb qaraladi. Misol uchun, “Malomatiylar o‘zlarining qilgan ishlariga e’tiborni tortgan kimsani g‘ofil yoki quvonganni riyokor, deb baholashgan” (10, 207)“… agar bir inson farz amallarini riyo uchun — insonlarga ko‘rinish uchun ado qilsa, u ishni ado qilmabdi. Bu esa butunlay munofiqlikdir. Alloh taolo o‘z so‘zida munofiqlar haqida aytgan: “Albatta, munofiqlar do‘zaxning eng tuban joyida bo‘lurlar” (Niso, 145)” (5, 23). Rind-so‘fiylar aynan xolis Haqning nigohi uchun, Uning nazargohi bo‘lgan siyratning pokligi-yu go‘zalligi uchun kurashganlar. Zohidlardan farqli o‘laroq, rindlar toat-ibodatda xotirjamlikni ko‘rmaganlar. Bil’aks, ularning xushusi go‘zal muhabbat, haroratli ishq bilan bezangan. Ular qilingan amallardan xotirjamlik iymonni, Haqqa mehr-muhabbatni susaytirishini tabiatan idrok etganlar. Chunki xotirjamlik qalbni ishqsizlikka mahkum etadi. So‘fiylarning, xususan, rind ahlining sidq-u ixlos borasidagi qarashlari rakursi shu qadar keng qamrovliki, unda o‘zlik yukining minnatiga o‘rin qolmaydi. Shu bois ular zohidlar toat-ibodatida riyoni ko‘radilar, chunki: “Zohidlarning niyati ibodat bilan oxirat mag‘firatini qozonish, Qur’onda va’da qilingan jannatning huzur-halovatiga yetishish edi. So‘fiylar nazarida esa jannat umidida toat-ibodat qilish ham tamaning bir ko‘rinishidir. Holbuki, so‘fiy uchun na dunyodan va na oxiratdan tama bo‘lmasligi kerak. Yagona istak bu — Haq taoloning diydoridir, xolos” (8, 10). Navoiy-Foniy rind va zohid tafovutini shunday maqomda ko‘rsatadi:

Ba har qadam sari rindon shudast xok, ba dayr
Ba zuhd kay shavad on jo nihod po gustoh (1, 214).

(Mazmuni: Mayxonaning har qadamida rindlarning boshi tuproqqa teng bo‘lyapti,/Taqvodorlik bilan u joyga qanday qilib beodoblarcha qo‘yib bo‘ladi?).

Demak, taqvodorlikda namoyish, ko‘ngildan chiqish, uzilish bor. Bunday minnat pillapoyalaridan o‘tib qadam tashlash rindning boshiga oyoq bosish bilan barobar. Tasavvuf talqinida *tuproq* Haqqa sidq-u sodiqlik, nafsga hayot beruvchi illatlardan poklik, kibrga barham berish ramzi mazmunida qabul qilinadi. Mayxona shunday dargohki, bunda *tuproq maqomi*ga loyiqlar manzil topgan. Baytda keltirilganidek, “har qadamda rindlar boshining tuproqqa teng bo‘lishi” shunday bir ilohiy-uluviy ko‘tarilishlar, daqiqalar manzarasiki, bunda Haq tajalliysidan sarmast pok qalblarning o‘z Manziliga tomon ilohiy zorlanish mavjlari tajassum topgan. Boshning tuproqqa barobar etilishi ularda (rindlarda) faqat Haq ishqi bilan haroratlangan qalbdan bo‘lak gavhar qolmaganligidan dalolat beradi. Rindlar shunday maqomga sazovorki, bunda shakl olamidan chiqiladi, sir pardalari barham topadi. Shunday ekan, taqvo yuki bilan u yerga qadam urish mumkinmi? Taqvoning tub ildizlarida o‘zlik minnati hayot topadi. Albatta, unda riyo bor, kibr najot topadi. Riyo bor joyda hayo sir pardalarini tortadi, chekinadi. Shunday ma’naviy nomuvofiqlik bilan mayxona ahli tomon yurish mumkinmi? Navoiy bunday tafakkurga beadablik, axloqiy noqislik, ulg‘aymaganlik belgisi sifatida qaraydi. Baytda *bosh* istilohining qo‘llanishi misra ichida va misralararo tazod san’atini shakllantirgan (bosh — tuproq; bosh — qadam — oyoq) va bayt mazmunini yechuvchi tayanch timsol bo‘lib xizmat qilgan.

Rindona g‘azallar mohiyatida muhim o‘rin tutuvchi *riyo*ni timsol darajasida talqin etish ushbu tushuncha ma’no ko‘lamining yanada kengayishiga imkoni beradi. Navoiy nazarida *riyo* ruhiy kamolotga yetmaganlik, moddiylikka ehtiyojmandlik belgisidir. Aslida, jamiyatda vazifasi xalqni Haqqa da’vat etish bo‘lgan shayxlar orasida riyo pardasi ortidan dunyoga muhabbat bog‘laganlarning uchrashi shoir ijodida hatto *riyokor shayx* timsolining paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Navoiy o‘zining “Mahbub ul-qulub” asarida bu toifa kishilarni shunday ta’riflaydi: “Riyokor shayx o‘zini yaxshi va chiroyli ko‘rsatishga urinadi. U oltin qoplangan mis kabidir. Usti yaltiroq, ichi qaltiroq. Uning ko‘rinishi darveshga o‘xshaydi; ammo ichi shundayin bulg‘anch. U go‘yo hamma narsadan qo‘l siltagandek, aslida, barchasi aldamchilik; karomatlari tamomila nayrangbozlik. Dabdabali sallasi salobat yuki, boshidagi har tuki buzuq xayol alomati. Egnidagi quroq to‘n tovlamachiligidan nishona. “Rido” nomli kiyimi aybpo‘shi, pardasi” (4, 41).

Rindona-orifona mazmundagi she’rlarda *riyo* nafs , o‘zlik kabi tushunchalar qatorida chuqur mazmun ifodalaydi. Bunday she’rlarda, asosan, lirik qahramonning riyo va riyo ahliga

munosabati orqali unga xos axloqiy jihatlar namoyon bo‘ladi. “Favoyid ul-kibar” devonidan o‘rin olgan 288-g‘azalda ham buni kuzatish mumkin:

Menga bu nukta xarobot aro bo‘ldi masmu’
Ki, fano jomi riyo ahliga bo‘lmish mamnu’ (2, 199).

Mazmuni: “Xarobot ichra menga, fano jomi riyo ahliga man’ etilgan, degan so‘z (ovoz) eshitildi”. Baytda keltirilgan *xarobot* so‘zi rindona g‘azallarda keng qo‘llanuvchi timsollardan. U lug‘aviy ma’noda, ko‘p o‘rinlarda ta’kidlanganidek, vayrona, sharobxona ma’nolarini ifodalaydiyu “Tasavvuf istilohida xarob bo‘lish — qanoat, faqr yo‘liga kirib, hayvoniy nafslar, keraksiz, yomon xulq-odatlardan qutulib, o‘zni xoksorlik, kamtarlik rutbasiga solish” (6, 153) mazmunida keladi. Demak, xarobot — g‘ayr g‘uborlaridan poklanayotgan ko‘ngil timsoli. Riyoni anglamoq, unga qarshi kurash ayni shu manzildan boshlanadi. *Fano* — bashariy sifatlardan qutulgan inson ruhining ilohiy olamga qo‘shiluvi bo‘lib, bu birlikni shoir *fano jomi* timsolida tasvirlaydi. O‘zlik muammosidan qutilmagan riyo ahlini esa bu maqomga begona deb biladi va ayni paytda, rindning zotida, tabiatida riyo bo‘lmaganligi sababli uni *jomi fano* sohibi sifatida ta’riflaydi:

Qaysi rindeki riyo zotida yo‘qtur bittab’,
Ko‘rinur jomi fano tortsa behad matbu’.

Demak, aslida, yolg‘on, ikkiyuzlamachilik ma’nolarini ifodalovchi *riyo* tushunchasi g‘azalda ruhiy kamolotga g‘ov bo‘lo‘vchi illat, bashariy sifatlar mavjudligining timsoli sifatida qo‘llangan.

Tasavvuf adabiyotida riyoni anglash va unga qarshi kurash muhim masala sifatida tadqiq etilgan. Bu ko‘pincha zohid timsoli vositasida yoritiladi. Chunki zohidlar harakatida oxirat farog‘atidan umidvorlik maqsadi bor. So‘fiylar nazarida bu — tama’girlik — riyo hisoblangan. Shu bois Navoiy (g‘azallarida) zohidlarni riyo ahlidan deb bilgan va ularni tanqid qilgan:

Boda bu maqbulliq zotimda mavjud ayladi
Kim , meni zuhdu riyo ahliga mardud ayladi (3, 481).

Bunday g‘azallarda shoir riyoga Haq ishqida sadoqatning nuqsoni sifatida qaraydi. Haq tariyqiga kirgan solik unga qarshi kurashish jarayonida ruhiy yuksaklikka erishib boradi. Agar kimda bunday nuqsonlar bor ekan, u (faqrlik martabasiga ko‘tarilishga) ma’nan ulg‘ayishga qodir emas. Buni shoir g‘azalning keyingi baytida shunday ta’kidlaydi:

Kimki zotida erur shoibai ujbu riyo,
Qilgali qobil emas faqr tariqiga shuru’.

Shoir baytda tanosub san’ati orqali *shoiba*, *ujbu*, *riyo*ni nokomillik belgilari sifatida birlashtiradi va tazod san’atini qo‘llab,

buni faqr yo‘lidagi to‘siq deb ko‘rsatadi. “Faqr” komillikka intilayotgan solik uchun yuqori maqom bo‘lib, “tasavvuf yo‘li” (tariqat)ni tutgan solik talab, ishq, ma’rifat, istig‘no, tavhid, hayrat, faqr vodiylaridan keyin oxirgi — fano vodiysiga yetib keladi. Bu esa komillik darajasiga yetganlik demakdir. Ko‘rinadiki, faqrga yetmoq, aslida, qariyb, komillik darajasiga erishmoqdir, — deb yozadi N. Ramazonov. Fano yo‘lidagi to‘siqlardan inson “o‘z-o‘zicha xalos bo‘lolmaydi. Bu yo‘lda unga piri rahnamo — soqiy, ishq va uning fayziyoti — boda zarur” (7, 18). Shu bois lirik qahramon mayni o‘ziga najot deb biladi va dayr — mayxonaga yuzlanadi:

Dayr pir qulimenkim, qilibon may shoyi’,
Bergay ul ujbu riyo jonibi o‘rtarg‘a shuyu’.

Ilohiy ishq ziyosi — may inson ruhiyatiga yoyilishi, tarqalishi bilan undagi manmanlik, riyo barham topadi, deydi shoir. Navoiy baytda *ayn* harfi bilan tugaydigan tarqalmoq ma’nosini ifodalovchi *shoyi’*, *shuyu’* so‘zlarini tazod san’ati asosida zid (tarqalmoq — cheklanmoq, yo‘qolmoq) qo‘llaydi (bunda tajnis xususiyatlari ham bor).

Shuningdek, solikning Haq vasliga yetishishida qalbi ilohiy ma’rifat bilan limmo-lim orif muhim o‘rin tutadi. Keyingi baytda u *mug‘bachai bodafurush* atamasi bilan e’tirof etilgan. Orif o‘z ma’rifati bilan solikni dunyo bilan bog‘lab turuvchi aql-u hushidan ozod etadi, ruhiga erk hissini beradi:

Toki bir jom bila mug‘bachai bodafurush,
Xirad-u aqlni majnun yasagay bal masru’.

Baytda ta’kidlangan *aql* boqiy erkka tashna inson ruhi uchun g‘ovdir. Mumtoz adabiyotda u dunyo bilan aloqadorlik timsoli. Va har doim Haq sirlari kashf etiladigan maqom — behudlikka qarshi qo‘yiladi. XVI asrda Iroqda yashab arabiy, forsiy, turkiy tillarda devon tuzgan so‘z san’atkori Muhammad Fuzuliy o‘zining “Rind va Zohid” (“Aql va Qalb suhbati”) asarini aynan shu masalaga bag‘ishlaydi va ruh kishilari — rindlarning boqiy saodatga erishuvi xususida so‘z yuritadi (9, 103). (Ulug‘ mutafakkir mazkur asarda aynan shar’iy va istilohiy masalalar kengligida rind va zohidlik mohiyatini ochishga e’tibor qaratgan. Asarda Rind va Zohid munozarasiga islomiy talqin nuqtai nazaridan yondashiladi, yechimda esa rind haqiqati namoyon bo‘ladi. Asarning butun syujeti ana shu ikki obraz munozarasi asosiga qurilgan va shu asosda ularning haqiqati oydinlashib boradi.) Orif qalbida porlab turgan jom shunday qudratga egaki, unga ma’nan yetishgan solik ruhi ilohiy tajalliy ziyosidan bahramand bo‘ladi. Menga orif ana shunday ilohiy ma’rifat mavjlanib turgan jomni tutsa, ya’ni meni qalb gavharidan bahramand etsa, taqvo-u ibodatim, ilm-u dinim — barchasi unga fido bo‘lsin, degan mazmun keyingi baytda Navoiy lirik qahramoni tilidan e’tirof etiladi:

Menga ul jomni gar tutsa, fidosidur aning

Ilm-u dinu xirad-u zuhd ila taqvo majmu'.

Mazkur baytda ham shoir tanosub san'atini qo'llab ilm ham, din ham, aql-u zuhd-u taqvo ham dunyoga xos ekanligini ta'kidlaydi. Ayni paytda, Haqning tajalliy nurlari porlab turgan jom uchun ana shu dunyo hodisalaridan kechishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan fidoyi rindning ma'naviy qiyofasi namoyon bo'ladi.

G'azal maqta'sida "Dayr piri—ilohiy ma'rifat sirlaridan ogoh etuvchi orif maqomiga yetmaguncha, ilohiy fayz nurlarini ulashuvchi mug'bacha darajasiga yetmaguncha o'zgalarga holingdan so'ylama", degan mazmun aks etgan:

Dayr pir bila to mug'bacha bo'lmay, qilma,
Ey Navoiy, yigit-u qarig'a holingni ruju'.

O'zgalar tushunchasi baytda *yigit-u qari* juft so'zi orqali ifodalangan. Tazod san'atiga asos bo'lgan bu so'z juftligi umrning o'tkinchiligi, dunyoning bebaqoligini ta'kidlashga xizmat qilgan. Ayni paytda dunyoga bog'langan avom ahli ma'nolarini beruvchi *yigitu qari* mafhumi mazmunan *dayr piri* va *mug'bacha* timsollariga zid qo'llanilib, shoir orzu qilgan yuksak qalb egalarining manguga daxldorligiga ishora qiladi. Shuningdek, Navoiy **insho** san'atining *amr va nahiy* usulini qo'llab (ruju' qilma), o'tkinchi dunyoga bog'lanib qolmaslikka chorlaydi.

Ko'rinadiki, *riyo nafs, o'zlik* tushunchalari qatori Navoiyning ijtimoiy-falsafiy, sufiyona qarashlari ifodasida muhim o'rin tutadi. Yolg'on ma'nosini bildiruvchi mazkur tushuncha shoir ijodida, xususan, g'azallarida Haq ma'rifati yo'lida intilayotgan solik ma'naviy-ruhiy olamidagi to'siq ma'nosini ifodalovchi timsolga aylanadi. Shuningdek, Navoiyning axloqiy-ma'rifiy qarashlari tadqiqida muhim ochqich bo'lib xizmat qiladi.

Navoiy-Foniy lirik kechinmalarida zohidni rind ma'naviy olamidan xabardor etishga, uning ulug'vor darajasi haqida tasavvur berishga bel bog'laydi. Shoir rind va zohid dunyoqarashi, ma'naviy olamlaridan ogoh. Shu bois zohidning rindga doimiy ta'nasi uchun javob axtaradi va baytlarida munosib javob topadi:

G'ulomi rindi xarobatiyam, ki lol omad,
Chu xost ta'ni mayash kard porso gustoh (1, 214).

(Mazmuni: Shunday xarobot rindining qulidirmanki, zohid beadablik bilan/ mayxo'rligini ta'na qilmoqchi bo'lgan edi, lol qildi uni).

Inson qachonki hayrat bilan yuzlashsa, lol qoladi. Hayrat esa hol hosilasidir. Holning manzili bo'lgan xarobotda rind qaror topgan. Mazkur baytda zohid doimgidek rindni mayxo'rligi uchun mot qilmoqchi edi, rind hol hayratlari bilan uni lol qildi, so'zsiz qoldirdi (ya'ni, Haqning tajalliy nurlarini o'zida namoyon etdi), degan mazmun anglashiladi.

May makon va zamon shiddati, shakl-u shamoyil chegaralariga bo'ysunmaydi: ko'tariladi, ilohiylik ifodalarini bizning

tasavvurlarimizdan tashqariga muhrlaydi, Inson tafakkuri, idroki, imkoniyatlaridan tashqarida Buyuk Qudrat borligidan ogoh etadi. Navoiy-Foniy bunday ilohiy tasavvurlar manzarasini shunday satrlarga tizadi:

Mae xoham, ki tobad dasti zuhd-u ilmro zo'rash,
Xiromad shergir, az raxnai mayxona har mo'rash.

Mazmuni: Shunday bir mayni xohlaymanki, uning zo'rligi zuhd va ilm qo'lini buksin, / Mayxona kavagidan chiqqan har bir chumolisi sherdek qadam bossin (1, 469).

Rind haqiqatini o'rganishda ***tavba*** istilohi alohida o'rin tutadi. Shuningdek, talqin jarayonida uning ma'no mundarijasi yanada kengayadi. Albatta, tavba insonga xos. Bu uning Allohni tanishidan, Unga iymon keltirganidan, gunohlariga iqrorligi va pushaymonligi, Yaratgandan umidvorligidan dalolat beradi. Tasavvuf lug'atlarida bu inobatga olinadi. "Allohdan boshqa (g'ayri) har narsadan yuz o'girmoqqa tavba demishdir" (8, 481). Bu shunchaki fikriy iqror ifodasiga o'xshaydi. Aslida, bu inson mohiyatini tashkil etuvchi ruh tantanasi namoyishidir. Bunda solik o'z manziliga yetadi — may — tajalliy olamiga g'arq bo'ladi. *Tavbani sindirmoq* deganda ilohiy olamga qarab shitob etmoq, bu yo'lga mone'lik qiluvchi to'siqlarni barbod etmoq, shakl olami o'lchamlarini ortda qoldirib, abadiy olamga ko'tarilmoq mazmuni istiloh etiladi va rind so'nggi manzilda ham riyo ahlini o'zining nigoron qismatidan xabardor etadi:

Dar maykada gar g'arqi mayam tavba shikasta,
Ey shayx, zi mo darguzar, on olami ob ast (1, 152).

(Mazmuni: Ey shayx, tavbani sindirib, mayxonada mayga g'arq bo'lsam, / Bizni kechir, chunki mayxona — suv olamidir (1, 153).

Baytda suv istilohining qo'llanishi uning abadiy tiriklik timsoli ekanligi bilan istifoda etiladi.

Shuningdek**,** *taqvo masalasi*ga jiddiy yondashish rindlik mohiyatini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Fuzuliy asarida ham qo'yilgan ko'plab masalalar qatorida taqvoga alohida e'tibor qaratiladi. Chunki riyoning istilohiy talqinini mutafakkir taqvo bilan bog'laydi. Imon qo'rg'oni bo'lgan sidq-u ixlosning ziddi bo'lgan *riyo taqvo*da aks etadi va bu rind tomonidan tanqid qilinadi: "Ey Zohid, bu yerni shaytonning uyi, u yerda o'tirganlarni isyonkor ahl, deb bilding. Bu qanday hikmatki, Alloh taolo o'z qo'li ila dushmanining uyini ma'mur etmishdir. Bu qanday ishki, Alloh taolo o'ziga qarshi turganlarga istaklariga erishsin, taqvo jomiga tosh otsin, taqvoni parchama-parcha etsinlar, deb muhlat bermishdir?" (9, 75). Ushbu parcha faqat taqvo emas, hayotdagi rindlar, ular tanlagan yo'l haqiqatini ham ochishga xizmat qiladi.

Gunoh, nuqson, qusur insonga xos. Rind va zohidning bir-biridan yiroqlashtiradigan nuqsonlari ularning haqiqati birlashishiga to'sqinlik qiladi: "Ikki narsa dunyoni buzadi. Bularning har ikkisi shakl jihatidan bir-biriga o'xshar. Bularning birinchisi, riyodirki,

Zohidlar yo‘liga tuzoq qurar. Ikkinchisi, zino (gunoh — *O.B.)*dirki rindlar yo‘lini kesar. Bu ikki buzg‘unchi o‘rtadan yo‘qolsa, rind va zohid haqiqati birlashadi” (9, 101).

Xulosa. Demak, Rind va Zohid ziddiyati rind olami boshlangunicha. Chunki zohid rindning zohirinigina ko‘ra oladi, xolos va bu ziddiyat faqat dunyoga xos. Muhimi, rindlik Haqiqati sari yo‘l ochadi. Rind va rindlikni o‘rganish esa Haq va Uning sirlariga yetishning bir yo‘lidir. Navoiy rindona she’riyatini tadqiq etish bu yo‘lning muhim odimlaridandir. Navoiy ijodidagi rind va rindlikka daxldor haqiqatlarni ochishda rind-zohid ziddiyatiga asoslangan usul alohida o‘rin tutgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Ўн беш жилдлик. 5- жилд. “Девони Фоний”. — Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашрёти, 1965. — 471 б.
2. Алишер Навоий. Йигирма жилдлик. 6-жилд. “Фавойид ул-кибар”. — Тошкент: Фан, 1990. — 565 б.
3. Алишер Навоий. Йигирма жилдлик. “” 3- жилд. “Ғаройиб ус-сиғар”. — Тошкент: Фан, 1988. — 614 б.
4. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. — Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашрёти, 1983. — 112 б.
5. Ал-Фақиҳ Абу Лайс ас-Самарқандий. Танбеҳул-ғофилийн. — Тошкент: Movarounnahr, 2003. — 256 б.
6. Комилов Н. Тасаввуф. — Тошкент: Movaraunnahr — O‘zbekiston, 2009. — 444 б.
7. Муллахўжаева К. Навоийнинг ҳамд ғазалларидаги фалсафий қарашларга доир// Филология масалалари. 2008, 19-сон, Б. 3–9.
8. Uludag S. Tasavvuf terimleri sozlugu. — Istanbul, 2002. — 531 s.
9. Fuzuli. Rind ve zahid. —Istanbul, 2006. — 103 б.
10. Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. — Тошкент: Фан, 2007. — 223 б.

Refrences

1. Alisher Navoi. Fifteen volumes, Volume 5. "Divani Fani", Tashkent: Ghafyp Ghulam Publishing House of Literature and Art, 1965, 471 p.
2. Alisher Navoi, Twenty volumes, Volume 6, "Edification of old age", Tashkent, 1990, 565 p.
3. Alisher Navoi, Twenty volumes, Volume 3, "Curiosities of childhood", Tashkent, 1988, 614 p.
4. Alisher Navoi, *Mahbub ul- kulub* (Beloved of Hearts), Tashkent: Ghafyp Ghulam Publishing House of Literature and Art, 1983,112 p.
5. Al-Faqih Abu Lays al-Samarkandi, *Tanbehul-gofiliyn* (Reproaches to the ignorant), Tashkent: Movarounnahr, 2003, 256 p.
6. Komilov N. *Tasavvuf* (Sufism), Tashkent, 2009, 444 p.
7. Mullaho'jaeva K. *Filologiya masalalari*, Tashkent, 2008, No. 19, pp. 3–9.

8. Uludag S. *Tasavvuf terimleri sozlugu* (Definition of Sufism terms,) Istanbul, 2002, 531 p.
9. Fuzuli. Rind ve zahid (Rind and ascetic), Istanbul, 2006, 103 p.
10. Haqqul I. *Navoiiga kaitish* (Return to Navoi), Tashkent: Science, 2007, 223 p.